

Oliy ta'limda ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etish tamoyillari.

Teshaboeva Feruza Raximovna

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Inklyuziv ta'lim kafedrasida dosenti, (PhD)

Qo'qon, O'zbekiston

Qaxramonova Dilsozaxon Ilyosbek qizi

Ne'matullayeva Gulzora G'anijon qizi

Rustamova Xushnida Jahongir qizi

Tojiboyeva Yulduzxon Dilshod qizi

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)

4 bosqich talabalari

Аннотасија

Ushbu maqolada oliy ta'limda "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, oliy ta'limda ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etish tamoyillari: "Prognostik yondashuvning ustivorligi", "SHaxsga yo'naltirilganlik", "Vaziyatboplik", "Kommunikativlik", "Variativlik" haqida fikrlar yoritilgan.

Аннотация

В данной статье представлены теоретические сведения по повышению эффективности преподавания модуля «Специальная методика преподавания родного языка» в высшей школе. В частности, выделены принципы эффективной организации лекций в высшей школе: «Приоритет прогностического подхода», «Личностная направленность», «Ситуативность», «Коммуникабельность», «Вариативность».

Abstract

This article presents theoretical information on increasing the effectiveness of teaching the "Special Methodology of Mother Tongue Teaching" module in higher education. In particular, the principles of effective organization of lectures in higher education: "Priority of prognostic approach", "Personal orientation", "Situationality", "Communicativeness", "Variability" are highlighted.

Oliy defektologik ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, maxsus metodikalardan samarali foydalanishga o'rgatish keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasida "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari umumdidaktik tamoyillarga to'liq tayanadi: ilmiylik, izchillik, ketma-ketlilik, uzviylik, moslilik, tushunarlilik, puxtalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, ko'rgazmalilik, defferensial yondashuv, yakka yondashuv, onglilik.

Yuqoridagi umumdidaktik tamoyillardan tashqari amaliyotda dolzarb hisoblangan qator tamoyillarni ajratib o'tdik. Innovasion ta'lim sharoitida «Ona tili o'qitish maxsus metodikasi» moduli bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etish tamoyillari quyidagilar:

1. **Prognostik yondashuvning ustivorligi.** Natijalarni oldindan ko'rabilgan holda ta'lim oluvchi va beruvchining harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish.

2. **Shaxsga yo'naltirilganlik.** Pedagogik jarayonda talabalarning qiziqishi, o'zlashtirish xususiyatlari (audial, vizual, kinestet, diskret), tajribalari va o'ziga xos individual xususiyatlarini inobatga olish.

3. **Vaziyatboplik tamoyili.** Ma'ruza jarayonida taqdim etilayotgan ma'lumotlarni tezkor va to'laqonli o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi vaziyatlarni yaratish. Bundan tashqari ma'ruza paytida sodir bo'lgan turli vaziyatlardan salbiy oqibatlersiz, aksincha mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan holda chiqib ketish. Ona tilini o'rgatishda til qonuniyatlarini hayotiy vaziyatlar sodir etgan holda o'zlashtirishga imkoniyat yaratish. Ushbu tamoyil ona tilining hissiy-emosional tamonlarini bevosita anglash imkoniyatini beruvchi immitasion voqealar modellarini taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasasi pedagogi bu kabi modellar to'plamiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

4. **Kommunikativ tamoyil.** Ushbu tamoyil ma'ruza mashg'ulotini o'zaro ishonchga asoslangan muloqot orqali olib borilishini taqozo etadi. Ona tilini to'liq o'zlashtirish insonga o'z fikrini nutqiy muhitga mos og'zaki va yozma bayon etishga imkon beradi. «Ona tili o'qitish maxsus metodikasi» moduli talabaga ham shaxsiy hayotda, ham kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyani egallash imkoniyatini beradi, shu bilan bog'liq ravishda pedagog har bir mavzuning talabalarga ham hayotiy, ham kasbiy ehtiyoj ekanligini tushuntirishi lozim, buning uchun esa biz tavsiya etayotgan ma'ruza mashg'ulotini motivasion, informasion, instruktiv, reflektiv bosqichlarga ajratib, har bir bosqich uchun mos usul va vositalarni maqsadli tanlagan holda tashkil etish kutilayotgan natijalarni ta'minlaydi.

5. **Variativlik tamoyili.** Bugungi kunda ta'lim jarayonida varativ yondashuvlarga ustivorlik berilmoqda. Variativlik bu ko'p varantlarga ega bo'lishdir. Ma'ruza jarayonida pedagogdan usul va vositalarning variasiyalarini

tayyorlab qo'yish taqozo etiladi. SHaxsga yo'nalganlik tamoyili aynan variativlikka ehtiyoj tug'diradi. Pedagog qaysi yo'lni tanlamasin, talaba mavzuga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyani o'zlashtirishi lozim. Har bir talaba mavzuni birdek o'zlashtirish imkoniyatiga ega emasdir, shunday ekan pedagog mavzuga oid minimal chegarani bilgan holda axborotlar ko'lamini, ularni mustahkamlash uchun o'quv topshiriqlarining qiyinlik darajalarini oldindan belgilashi talab etiladi. Bu jarayonda muhim bir qoida "avtobusning boshi ham, oxiri ham bir hil manzilga boradi"ni unutmaslik lozim, ya'ni qaysidir talaba "A" darajada boshqa mavzuda, yana bir talaba esa "N" darajada yana bir boshqa mavzuda bilganlarini gapirishidan qochish kerak. Afsuski, amaliyotda bunday holatlar, ya'ni talabaga "albatta, qaysidir bahoni qo'yish kerak-ku" qabilida yo'l tutish holatlari uchramoqda. Mana shunday holatlarni oldini olishda varativlik tamoyili qo'l keladi.

6. **Bir qadam oldin tamoyili.** Ushbu tamoyil o'quv muhitida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining faolligigiga ustivorlik beradi. Buning uchun pedagog modulga oid yaqin muddatga o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzularni taqdim etadi. Bunda talabalar ixtiyoriy-majburiy tarzda bo'sh vaqtlarida kerakli ma'lumotlarni o'rganishlari taklif etiladi. Ma'ruzada boshqa talabalardan bir qadam olin yurgan talabalarga o'qituvchilik rolini berilishi o'quv muhitini yanada faollashtiradi, jarayonda sog'lom raqobatni yuzaga keltiradi. Pedagogning bir qadam oldin yurishi esa, talabalar uning nima qilmoqchi bo'lganligi, keyin nima topshiriq berishi qiziqarli bo'lishi lozim. Bu holat bir usullarni qayta-qayta qo'llaganda yuzaga keladi. Qayta-qayta bir hil qo'llash esa talabani zeriktiradi, ya'ni ular "xa, yana... qilamiz ekan-da" degan fikrda bo'lib jaryonga sovuqqon holatda yondoshadilar. Buni oldini olish yo'li varativlikdir.

YUqorida sanab o'tilgan tamoyillar sharxidan ko'rinib turibdiki, ular ma'lum ma'noda o'quv muhitida kesishadilar, ya'ni bir-biriga bog'liqdir. Eng muhimi pedagog innovasion ta'lim sharoitida ushbu tamoyillarning zarur hamda dolzarbligini unutmasligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. dis.ped.fan.dok. Toshkent 2020.
2. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1* (2020).
3. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion 1.2* (2023): 98-104.
4. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea 5.05* (2023): 299-302.
5. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research 11.12* (2022): 141-147.
6. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 873-875.
7. Feruza, Teshaboieva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 546-548.
8. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhon Mirzakhdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).
9. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3* (2023): 563-566.
11. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea 3.03* (2023): 226-230.
12. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
13. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
14. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
15. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
16. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea 3.03* (2023): 63-67.
17. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education 14.6* (2022).
18. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea 11.11* (2023): 21-25.

20. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 11.11 (2023): 17-20.
21. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
22. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.
23. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутки тўлик ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.

